



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



## NAVOIY IJODIDAN BIR G'AZAL TAHLILI.

**Islamova Shaxzoda Dilshod qizi**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand  
davlat universiteti. 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Navoiyning hayoti va adabiy faoliyati, "Ohima yor og'zi bir dam kulmagan kam qilmadi" g'azalning tahlili, qo'llanilgan she'riy san'atlar, shuningdek, g'azalning badiiy ahamiyati ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Alisher Navoiy, masjid, rabot, muhr dorlik, vazn, raviy, mutlaq qofiya, qofiya, tazod, ishtiqoq, nido, tanosib, foilotun.*

**Аннотация:** В статье рассматриваются жизнь и литературное творчество Навои, анализ газели «Охима ёр оғъзи бир дам кулмагин кам килмади», использованные поэтические приемы, а также художественное значение газели.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, мечеть, связь, печать, вес, рассказчик, абсолютная рифма, рифма, контраст, страсть, восклицание, гармония, функция.

**Abstract:** This article examines Navoi's life and literary work, an analysis of the ghazal "Ohima yor og'zi bir dam kulmagan kam mekdey", the poetic arts used, as well as the artistic significance of the ghazal.

**Keywords:** Alisher Navoi, mosque, rapport, seal, weight, narrator, absolute rhyme, rhyme, contrast, passion, exclamation, harmony, function.

Alisher Navoiy ulug‘ o‘zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi bo‘lgan. G‘arbda adabiyotning buyuk vakili deb qaraladi, Sharqda „nizomi millati va din“ (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug‘lanadi. Sharofiddin Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir iste’dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e’tirofini qozongan. Sayyid Hasan Ardasheri, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta’lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo‘lgan. Navoiy 1469-yilgacha temuriylar orasidagi ichki nizolar sababli Hirotdan yiroqroqda yashagan. Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga o‘tirgach (1469), Navoiy hayoti va ijodida yangi bosqich boshlanadi, muhr dorlik (1469) mansabiga, vazirlik (1472) va Astrobod hokimligi (1487)ga tayinlanadi. 1480 —1500-yillar mobaynida o‘z mablag‘lari hisobidan bir necha madrasa, 40 rabot (safardagi yo‘lovchilar to‘xtab o‘tish joyi), 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko‘prik, 20 ta hovuz qudiradi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga „muqarrabi hazrati sultoniy“ („sulton hazratlarining eng yaqin kishisi“) degan unvonni beradi. Unga ko‘ra Navoiy davlatning barcha ishlariga aralasha olardi. Saroy ishlaridan tashqari ijod bilan ham tinimsiz shug’ullanib borar edi. Alisher Navoiy o’zbek tilida yaratgan she’riy merosi asosan “Xazoyin ul-maoniy” devoniga jamlangan. Asar 4 qismdan iborat. Devonning birinchi qismiga “G’aroyib us-sig’ar” (“Bolalikning g’aroyibotlari”), ikkinchi qismiga “Navodir ush-shabob” (“Yigitlik nodirotlari”), uchinchi qismiga “Badoe’ ul-vasat” (“O’rta yosh badialari”) va to’rtinchi qismiga “Favoyid ul-kibar” (“Keksalik foydalari”) degan nomlar berildi. “G’aroyib us-sig’ar”dagi 632-g’azalni badiiy tahlil qilamiz.

Ohima yor og’zi bir dam kulmagin kam qilmadi,  
Chun sabodin g’uncha ochildi, yana yopilmadi.

Nishtari ohim, ajab yo’q, ko’nglungga kor etmasa,  
Tezlikdin igna hargiz xoraga sonchilmadi.

Qatrae tomizma bizga tutqon asfar bodadin,  
'Sham o'tidin, soqiyo, hargiz sharor ayrilmadi.

Ishqkim har bir ishida yozdi yuz ming turfa xalq,  
Turfaroq budurki, yuz mingdin biri yozilmadi,

Ko'yida ohim yeli raf etti ul yuz burqain,  
Hech gulshanda sabodin buyla gul ochilmadi.

Qaysi johilga nadomat bolg’ayul olimchakim,  
Har ne bildi qilmadi, har neki qildi bilmadi.

Ey Navoiy, yor vaslin istabon ul topdikim ,  
Ahli hijron zumrasida istabon topilmadi.

Ushbu g’azal “G’aroyib us-sig’ar” devoniga kiritilgan bo’lib, Navoiy ushbu g’azalni sevgi va ayriliqning nozikliklarini, qalbdagi chuqur his-tuyg’ularni ifodalash uchun yozgan. G’azalda ishq va sabrning ahamiyati ta’kidlanadi, shuningdek, inson qalbidagi o’zgarishlar, sevgan insonning go’zal va baxtli his-tuyg’ularni yaratish qobiliyati ko’rsatilgan.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'YOYALAR



Ushbu g'azal 7 baytdan iborat bo'lib, aruz vaznining ramali musammani mahzuf(-v--/-v--/-v--/-v; foilotun, foilotun, foilotun, foilun) bahrida yozilgan. Qofiyadagi so'zlar: qilmadi, yopilmadi, sanchilmadi, ayrilmadi, yozilmadi, ochilmadi, ochilmakim, bilmadi, topilmadi. G'azaldagi raviy 1 harfi va u mutlaq qofiya hisoblanadi.

### **G'azalning nasriy bayoni.**

(1) Bu baytda oshiqning kechinmalari go'zal tasvirlangan bo'lib, yor jilmayishi uning dardini kamaytirish o'rniqa oshirganligi ifodalangan.

G'azalning birinchi baytida men yor ishqida oh-u fig'on qilar ekanman, yor esa bir dam ham mening holimga kulishdan to'xtamadi. Bu xuddi tong shamoli ochilgan g'uncha qayta yopilmaganiga o'xshaydi. Bu baytda "ochildi"- "yopilmadi" so'zlari orqali tazod san'atini ko'rishimiz mumkin. Tashbeh san'ati: yorning lablari g'unchaga o'xshatilgan: "chun sabodin g'uncha ochildi". Bu san'at yor go'zalligini yanada jonliroq tasvirlashga yordam berган.

(2) Baytda oshiqning sevgilisi oldida ojizligi, uning nola iztiroblari yorga mutlaqo ta'sir qilmayotganligi ifodalangan. Yor qattiq yurakli bo'lib, uning ko'nglini olish shunchaki nolalar bilan mumkin emasligi ta'kidlanadi. Umumiy xulosa qilsak, baytda ohimning nayzasi ko'nglingga kor qilmasa, ajablanarli joyi yo'q. Chunki ignani qanchalik kuch bilan toshga ursang ham sanchilmaydi.

(3) G'azalning uchinchi baytida ey soqiyo, bizga tutganing sariq bodaning bir qatrasini ham besamar o'tkazma. Ahir shamning olovidan hargiz uchqun ayrimas. Oshiq sevgida mashaqqat chekishdan shikoyat qiladi va taqdirdan iltijo bilan so'raydi: safarning (hayotning, sevgi iztiroblarining) mashaqqatidan bizga hatto bir tomchi ham tomizma. Lekin bu iltijo ilojsiz, chunki sham olovidan hech qachon uchqun ajralmagandek, oshiq ham sevgining iztiroblaridan ajrala olmaydi.

(4) To'rtinchi baytida esa ishq shundayki, uning har bir ishi uchun xalq yuz ming turfa sharh yozdi. Lekin qizig'i shundaki, ishq haqida shuncha ko'p yozilsa-da, hali yuz mingdan biri yozilgani yo'q. Sevgi shunday buyuk va cheksiz mavzuki, uni insoniyat tarixida yuz minglab odamlar unga oid asarlar yozgan bo'lsa ham, uning haqiqiy mohiyatining hatto bir qismi ham to'liq ochilmagan. Bu ishqning beqiyos sir-sinoatlarga ega ekanligini anglatadi. Shoir tazod san'atini qo'llagan "Yuz ming yozdi" va "biri ham yozilmadi" - bu yerda qarama-qarshi fikrlar qo'llangan bo'lib, yuz minglab odamlar yozgan bo'lsa-da, ishq to'liq yozib tugatilmagan.

(5) Besinchi baytida ohim shamoli ko'chasidan o'tarkan yuzidagi niqobini yubordi. Shu vaqtga qadar hech bir gulshanda bundoq gul ochilmagan edi. Bu baytda "gulshan" va "gul" so'zlari orqali ishtiqoq san'ati yuzaga kelgan. Shu so'zlar orqali tanosibni ham ko'rishimiz mumkin.





(6) Oltinchi baytida hech qaysi johilga beamal olimga achingan, afsuslangan kabi achinish, nadomat qilish mumkin emas. Chunki bunday olim nimaniki bilsa, bilganiga, ilmiga amal qilmaydi. Nimaniki qilayotgan bo’lsa, nima qilayotganini bilmaydi, farqiga bormaydi! Bu orqali insonning tashqi ko’rinish va ichki mohiyat o’rtasidagi tafovutga, shuningdek, donolik va amaliy hayot o’rtasidagi ziddiyatga ishora qiladi. Ushbu baytda “bildi qilmadi” va “qildi bilmadi” so’zlarida tardi aks san’atini ko’rishimiz mumkin.

(7) Yettinchi baytida esa ey Navoiy, oshiqning yor vaslini istab topgani hijron ahli guruhidagilar istaganini topolmasligini bilish bo’ldi! Baytda Navoiyga murojaat etib, poet sevgili bilan birlashuv orqali erishilgan mukammallik - “istabon”ni qo’lga kiritganligini e’lon qiladi. Shu bilan birga, ajralik holidagi insonlarning sevgida bunday ideal holatga erisha olmaganligini ta’kidlaydi. Bu taqqoslash orqali poetik sevgining erishilishi va ajralik azobining farqini, hamda uning qadr-qimmatini kinoya va mubolag’a san’atlari yordamida chuqur ifoda etadi.

#### **Lug’at tahlili:**

*Nishtari ohim- ohim qayg’usi, ohim o’qi; xora- qattiq tosh;  
qatra-tomchi; asfar-sap-sariq; sharor-uchqun, alanga;  
burqain-parda, niqob; buyla-bunaqa, bunday; olimcha-olim, bilimdon;  
johil-bilimsiz; zumra-qism, bo’lak, guruh; ko’y-yo'lida; Raf-yuksalmoq*

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adabiyot [Matn]: darslik-majmua / B.To’xliyev [va boshqalar],- Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Alisher\\_Navoiy#Adabiyotlar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Alisher_Navoiy#Adabiyotlar).
3. Muhammad Ali: "Alisher Navoiy: Hayoti va ijodi""Yangi O’zbekiston" yoki "Fan" nashriyoti. 1990
4. Nematov A. "Alisher Navoiy va uning g’azallari" "Fan" nashriyoti.2005-2010.

